



EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK MADANIYATINING AHAMIYATI

Xaydarov Baxrom Xolmuradovich

O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali, o'qituvchisi

baxrom3500@gmail.com

Dehqonova E'zoza Abdurahmon qizi

O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali, talaba

dehqonovaezoza8@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kundagi tadbirkorlarni har tomonlama rivojlantirish ularni qo'llab quvvatlash va o'z faoliyatlariga keng imkoniyatlar yaratib berish haqida aytilgan.

Abstract: This article talks about the comprehensive development of today's entrepreneurs, their support and the creation of wide opportunities for their activities.

Kalit so'zlar: Tadbirkorlik etikasi, tadbirkorlik madaniyati, raqobat, tadbirkorlik faoliyati.

Keywords: Business ethics, business culture, competition, business activity.

Tadbirkor faoliyati faqat tadbirkorlikning huquqiy va tashkiliy asoslariga bog'liq bo'lmasdan, u insonlar, qo'l ostida xizmat qiluvchi mutaxassis va ishchilar, ayniqsa, chet ellik hamkasblari biznesmenlar doirasida umumaxloqiy me'yorlarga rioya qilishi bilan ham baholanadi. Ishdagi muvaffaqiyatning yarmidan ko'prog'i uning odobi, madaniyati, dunyoqarashi, ishbilarmonlik qoidalarini qay darajada bilishiga bevosita bog'liqdir. Umuman, tadbirkorlik ham madaniyatdir. Aytishlaricha, madaniyatli odam tadbirkor bo'lishi shart emas, ammo tadbirkor inson madaniyatli bo'lishi lozim. Arastu (Aristotel) o'z zamonida birinchi bo'lib axloq to'g'risida gapirib: "Axloq – nimani qilishimiz va nimadan o'zimizni tiy- ishimiz kerakligini aniqlashimizga yordam beradi", - degan edi. Prezidentimiz I. Karimov axloq tushunchasiga quyidagicha ta'rif berdi: "Axloq – ma'naviyatning o'zagi. Inson axloqi shunchalik salom-alik, xushmuomaladangina iborat emas. Axloq bu, avvalo, insof va adolat tuyg'usi, iymon, halollik degani"

1. Umumiy qoidalar

- xususiy mulk muqaddas, daxlsiz va mulkchilikning qolgan barcha shakllari bilan bir qatorda teppa-tengdir;

- tadbirkor – ishchanlik va yaratuvchanlik missiyasining jonkuyaridir. Uning kasbi astoydil faoliyatni, ishlab pul topishni talab qiladi. Bu uning obro'-e'tibori manbaidir;

- tadbirkor o'z mehnatining ahamiyatini anglay oladi. U o'z hamkorlari- danishga mas'uliyat bilan yondashishni talab qiladi va uni qo'llab- quvvatlaydi;

- xususiy xo'jalik faoliyati ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga olib keladi va tabirkorga o'ziga xos majburiyatlar yuklaydi.

2. Tadbirkor va davlat



- tadbirkor davlat va uning qonunlarini to'g'ridan-to'g'ri hurmat qilishi va ularga amal qilishi lozim. O'z navbatida, u bunday yondashuvni davlatdan ham talab qilishi kerak.

3. Tadbirkor va mijoz

- tadbirkor mijoz manfaatlari, jamiyat, davlat va atrof- muhit uchun zarar keltirmaslikka, unga amal qilishga majburdir;

- mijoz manfaatlari davlatning qonun va manfaatlariga zid bo'lgan hollarda tadbirkor bu to'g'rida mijozlarni ogoh qilishga majburdir;

- mijoz ofertlar va ishlab chiqaruvchilarni tanlash huquqiga egadir. Raqobat yuksak sifat kafolatidir;

- tadbirkor mijozni bilmaslik yoki ataylab uni adashtirish, shuningdek bajara olishga ishonchi bo'lmagan buyurtalarni qabul qilish hollariga yo'l qo'yishi mumkin emas;

- va'daga vafo va aniqlik tadbirkorning qimmatli kapitalidir. Qo'l berib tasdiqlangan so'z, imzo chekilgan shartnoma kuchiga egadir. Zero, unga binoan majburiy tartibda og'zaki kelishuvni aks yettiruvchi yozma shartnoma rasmiylashtiriladi;

- shartnoma munosabatlarini bajarmaslik va yomon sifat tadbirkorning jamiyat va hamkasblari olididagi g'oyat og'ir aybidir, chunki bu tadbirkorning sharafi, nufuzi va yaxshiga nomiga zarar keltiradi;

- tadbirkor va mijoz o'rtasidagi munosabatlar majburlash asosida emas, balki xtiyoriy va o'zaro ishonch asosida vujudga keladi.

4. Tadbirkor va yollangan ishchilar

- tadbirkor yollangan ishchilarning iqtisodiy manfaatlari va insoniy qadriyatlariga nisbatan barcha mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. U o'z ishchilaridan qonunlarga amal qilishini talab etadi va o'zi ham shunga rioya qiladi;

- muayyan huquq va majburiyatlar mavjud qonun doirasida mehnat shartnomalarini tuzish chog'ida aks yettiriladi.

5. Tadbirkor va tadbirkorlar ittifoqining boshqa a'zolari

- tadbirkorlar ittifoqi a'zolari uchun qonunga muvofiq raqobat majburiydir va axloqning muayyan tamoyillariga amal qilishni talab qiladi;

- teng huquqli bo'lmagan sharoitdagi har qanday bozor faoliyati (raqobat) qabul qilingan me'yorlarga zid hisoblanadi. O'z xususiy mahsuloti yoki xizmatlarini raqobatchilar zaifligi hisobiga reklama qilish axloqsizlikka kiradi;

- raqobatchilik kurashida tadbirkor siyosiy mansubligi yoki jamiyatdagiegallagan mavqeyi va afzalliklaridan foydalanishga haqqi yo'q. Tadbirkorlar raqobatchilarning mualliflik huquqi yoki patent huquqini tan olishi shart;

- kredit va nafaqalarga taalluqli takliflar tanlov asosida taqsimlanadi, na tijalar zudlik bilan barcha manfaatdor tomonlarga yetkaz iladi. Ittifoq a'zolari o'rtasida munozarali masalalar vujudga kelgan taaqdirda, ular o'zaro kelishuvga muvofiq bu masalani ittifoq nazorat kengashiga kiritishi mumkin. Qabul qilingan qaror ikkala tomon uchun ham bajari-lishi majburiy hisobla- nadi.

Tadbirkor madaniyati



Tadbirkor madaniyati deganda tadbirkor odobi va iqtidori o'rtasidagi dialektik bog'lanish tushuniladi. Bu bog'lanish quyidagi fazilatlar majmuasida o'z aksini topadi:

Odob – aqlning suyanchig'i, barcha fazilatlarining mezon. Bejiz xalqimizda: "Aql bilan odob – egizak", deyishmaydi. Odob – yaxshilik bilan yomonlikning farqini bilish, foyda bilan zarar orasidagi tafovutni anglashdir. Odob vositasida kishi o'z jonini yomon xislatlardan davolaydi, yoqimsiz ay- blardan poklaydi, chiroyli fazilatlaridan bezaydi. Odob tadbirkorni eng chiroyli xulq bilan qurollantiradi. Natijada aql egalari bunday tadbirkordan har ishda rozi bo'lishadi. Odobli tadbirkor esa kundan kunga obro' topadi, nufuzi oshadi, ishlari ravnaq topadi.

Mamlakatimizni 2017 — 2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi.

Shu bilan birga, respublikamiz tadbirkorlik sub'yektlarining tashqi bozorlardagi ishtiroki va eksport faoliyatini yanada kengaytirish uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Ma'lumki, hozirda tashqi bozorlarda keskin raqobat va davom etayotgan iqtisodiy inqiroz sharoitida emin-erkin eksport faoliyatini yuritish, yangi bozorlarga kirib borish murakkab masala. Ushbu vaziyatda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o'zining egiluvchanligi, qiyin sharoitlarga tezda moslasha olishi bilan eksport faoliyatining dinamikasini ta'minlaydi.

Shuni inobatga olgan holda, davlatimiz tomonidan tadbirkorlik sub'yektlari eksport faoliyatini rivojlantirish uchun ham so'nggi yillarda keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari eksport salohiyatini yanada kengaytirish, ularga zamonaviy, chet el bozorlarida raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishda va uni eksportga chiqarishda zarur huquqiy, moliyaviy va tashkiliy yordam ko'rsatish, mamlakatimizning eksport qiluvchi tadbirkorlarini tashqi bozor kon'yunkturasi o'zgarishlari xavf-xatarlaridan ishonchli himoya qilishni ta'minlash maqsadida Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasini tashkil etildi.

Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rish.

Investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo'yicha, "pastdan-yuqoriga" tamoyili asosida, yangi tizimni yo'lga qo'yish.

2026-yilgacha Xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish.

Davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo'jaligi va boshqa sohalarga 14 milliard AQSh dollarga teng investitsiya jalb etish.

Respublika hududlari va xorijiy mamlakatlar biznes vakillari o'rtasida tashqi iqtisodiy aloqalarni o'rnatish, jumladan Sirdaryo viloyatining Xitoy Xalq Respublikasi, Surxondaryo



viloyatining Rossiya Federatsiyasi hamda Jizzax viloyatining Hindiston biznes doiralari bilan investitsiya va tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1 Хайдаров Б. ИҚТИСОДИЙ ИСЛОҲОТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ //Экономика и образование. – 2021. – №. 4. – С. 288-292.

1. Хайдаров В., Сaitov S. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi va afzalliklari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 634-635.

2. Хайдаров В. X., Saitov S. A. RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, AFZALLIKLARI AMALIY ANAMIYATI VA HORIJIIY TAJRIBA //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 151-156.

3. Бахром Х. X. БИЗНЕСНИ РЕЖАЛАШТИРИШ ТАРТИБЛАРИ //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 12. – №. 2. – С. 139-142.

4. Хайдаров В. IMPACT OF INTELLECTUAL PROPERTY PROTECTION ON THE DIGITAL ECONOMY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 163-174.

5. Хайдаров Baxrom Xolmuradovich, Xudayarov Rashid Tuychiyevich. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOT BIZNESNI REJALASHTIRISH. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 110–113. Retrieved from <http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/130>

6. Хайдаров Baxrom Xolmuradovich, & Saitov Sirojiddin Abduvalievich. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNESNING O'RNI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 113–116. Retrieved from <http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/131>

7. Хайдаров Baxrom Xolmuradovich. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOTDA BUXGALTERIYA VA AUDITNI O'RNI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 128–131. Retrieved from <http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/135>

8. Tuychieva Nodira, Baxrom Xaydarov, & Quziboyev Zafar. (2022). THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF COMPETITION AND MONOPOLY IN THE ECONOMY. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(11), 241–245. Retrieved from <http://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/324>

9. Baxrom Xaydarov. (2022). IMPACT OF INTELLECTUAL PROPERTY PROTECTION ON THE DIGITAL ECONOMY. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(11), 163–174. Retrieved from <http://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/317>.



10. Xolmuradovich X. B., Sherzod ogli A. Z., Rasulbek ogli K. J. BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATINING TURLARI VA SHAKLLARINING AHAMIYATI //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2022. – T. 2. – №. 18. – C. 140-145.
11. Xolmuradovich X. B. et al. " YASHIL IQTISODIYOT" NI MODERNIZATSIYA QILISH VA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING O 'ZARO MUTANOSIBLIGI MASALALARI //PEDAGOG. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 81-85.
12. Xolmuradovich X. B. et al. 2022-2026-YILLARDA MO' LJALLANGAN YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING MILLIY IQTISODIYOTNI ISLOH QILISHIDAGI O'RNI //PEDAGOG. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 78-80.
13. Tuychieva N., Xaydarov B., Rashidova G. MONEY-CREDIT SYSTEM IN UZBEKISTAN //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 246-250.
14. Saitov Sirojiddin, Tuychieva Nodira, & Saydullayeva Dinora. (2022). CHARACTERISTICS OF PRICE AND FORMATION. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(11), 265–270. Retrieved from <http://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/329>
15. Saitov Sirojiddin, & Achilov Azizbek. (2022). TRANSITION TO THE MARKET ECONOMY AND ITS CHARACTERISTICS IN UZBEKISTAN. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(11), 255–258. Retrieved from <http://www.ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/327>
16. Sirojiddin S., E'zoza D., Abror E. THEORIES OF PERFECT AND IMPERFECT COMPETITION //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 1414-1434.
17. Saitov S., Mahliyo R., Aziza M. DIGITAL PRINCIPLES OF IMPLEMENTATION OF ECONOMIC SYSTEMS IN OUR COUNTRY //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 1442-1462.
18. Sirojiddin S. POSSIBILITIES OF APPLYING WORLD EXPERIENCE OF ORGANIZING FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 1388-1413.